

## JAHON ADABIYOTI DURDONASI – JEK LONDON

*Asomiddinova Gulchiroy,**Marg`ilon shahar 1-DIUM o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Jahon xalqlari orasida iqtisodiy va madaniy aloqalar XVII asrning ikkinchi yarmida boshlanib, keng miqyosda rivojlana boshlagan. Bu jarayon bir biridan uzoq bo`lgan mintaqalardagi adabiyotlarning o`zaro aloqalari, badiiy jihatdan bir-biriga ta'sirning kuchayishiga sabab bo`ldi hamda jahon madaniyatining sifat va mazmun sirasida yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minladi.

**Kalit so`zlar:** jahon adabiyoti, adabiy jarayon, milliy adabiyot, adabiy xususiyat.

Yangilanish, zamonga qarab o`zgarish adabiy jarayonda to`liq anglab olindi va bu borada mashhur nemis shoiri Gyote o`z ijobiy fikrini bildirib, ilk daf'a „jahon adabiyoti“ atamasini iste'molga kiritdi. XIX asrda shakllangan „jahon adabiyoti“ tushunchasi, uni anglash tamoyili keyinchalik barcha milliy va mintaqaviy adabiyotlarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Asr so`ngida ushbu yaqinlik yangi xususiyat kasb etib, „jahon adabiyoti“ tushunchasidan „umuminsoniy adabiyot“ tushunchasi sari o`zgara bordi. To`g`ri ushbu yangi jarayonning yuzaga kelayotganligi nazariy jihatdan o`z vaqtida ilg`ab olinmadi. Bir-biridan uzoq, turli mintaqalarda joylashgan xalqlarning o`zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari sekin-astalik bilan rivojlanib mustahkamlanib bordi, desak mubolag`a bo`lmaydi. Jahon adabiyotida juda ko`plab yozuvchi, shoirlar yetishib chiqqan, ularning asarlari bir-biridan beqiyos, bir-biridan mukammal va adabiyot ixlosmandlarini o`ziga jalb qiluvchi, o`quvchi ongini teranlashtiruvchi asarlari o`ziga xos o`rinni egallagan. Jahon adabiyoti yozuvchisi Jek London ham ana shunday yozuvchilar safidan joy olgan. Uning asarlarida insonni hayotga bo`lgan teranligi, hayot zaxmatlarida o`ziga ishonch bilan yashash qiyinchilik paytlarda o`ziga, o`z irodasiga tayangan holda hayot kechirish kabi umuminsoniy fazilatlar ruhi mujassamlashtirilgan, desak mubolag`a bo`lmaydi.

Amerika yozuvchisi, yoshligida juda ko`p kasblar bilan shug`ullangan Jek London 1893-yilda ilk bor Yaponiya sohillariga dengiz safariga oddiy matros bo`lib borgan. 1894-yilda ishsizlarning Vashingtonga ko`chishida qatnashgan, daydilarcha hayot tarzi uchun qamoqqa olingan, siyosiy harakatlarga qo`shilgan. 1895-yilda AQSH ishchi partiyasi, 1901-yil sotsialistik partiyaga a`zo bo`lgan. Keyinroq Kaliforniya universitetiga o`qishga kiradi va ko`p o`tmay o`qishni tashlab ketadi. Adabiy faoliyati esa 1893-yildan boshlangan. Yozuvchining adabiyotga qiziqishi yoshlik chog`idanmi yoki keyinroq paydo bo`lgani bizga qorong`u, ammo uning adabiyotga bo`lgan qiziqishlari ko`plab sarguzashtlar natijasida ijodiy faoliyatni vujudga keltirgan, desak mubolag`a bo`lmaydi. Har qanday tabiat go`zalliklari insonni ijod qilishga undaydi, yozuvchini ham tinimsiz sarguzashtli go`zalliklar, ijodga bo`lga mehr, ijodga bo`lgan

muhabbati uni adabiyotga, ijod qilishga, dilidagi tugʻyonlarni qalamga tushirishga undagan. Oʻz fikrlarini his-hayajonlarini daftar hoshiyalariga tushishiga sabab boʻlgan va insonni ajablantiruvchi dunyo qarashini teranlovchi, oʻquvchi dilida oʻchmas iz boʻlib qoluvchi asarlar dunyoga kelgan va yillar davomida sayqallanib jahon adabiyotida oʻziga xos oʻrin olib, hozirda ham sevib-sevilib oʻqib kelinmoqda. Jek London adabiyot bilan tirik adabiyot bilan muqaddas, adabiyot bilan qalblardan oʻchmas iz boʻlib qolgan buyuk hayot adabiyoti yozuvchisidir.

Yozuvchining koʻpgina hikoya toʻplamlari, qator qissa va romanlari shimol mavzusida yozilgan „boʻri bolasi“, „izgʻirin bolalari“, „qor qizi“, „hayot uchquni“, „shimoliy Odissey“, „insonga ishonch“, „qadim dengizchilardek“, „chandiqli odam“, „oltin dara“ sarguzashtli asarlaridan „olis oʻlkada“, „ayol mardligi“, „gulxan yoqish“, „qish haqida qissa“ asarlari tabiat bilan uygʻunlashib ketgan mehnatsevar indetslarning oʻziga xos hayotini tasvirlagan. „Yovvoyi kuch“, „Oq soyloqtish“ asarlari hayvonot olami haqida hikoya qiladi. „Dengiz boʻrisi“, „Martin Idel“, „uch qalb“ romanlari mashhur. J.Londonning ijodida G.Spenser, F.Nitshe falsafiy taʼlimotlarining taʼsiri seziladi. „Martin Iden“ roman-biografiyasida bosh qahramonning paymonasi toʻlgan chogʻda ham „yashashga ishtiyoq“ni aks ettirgan. Uning individualizm taʼsirida yozilgan mazkur romanida gʻarbcha „barkamol inson“, yaʼni „supermen“ nazariyasi ham ilgari surilgan. J.London 16 yillik ijodiy faoliyati mobaynida 19 ta roman, 18 ta toʻplam (152 hikoya), 3 pyesa 8 ta avtobiografik va publistik xarakterdagi kitoblar yaratgan. „Hayotga muhabbat“, „Qish haqida“, „Martin Iden“ va boshqa asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

Yillar davomida koʻplab yozuvchilar, turli asarlar yaratib kelmoqda va shularga monand har bir asarlarning oʻziga xos zamonasiga xos oʻquvchilari, kitobxonlari koʻpayib bormoqda. Jek Londonning ham oʻzining kitobxonlari sanoqsizdir. Yozuvchining mahorati kitobxonning ichki kechinmalarini, kitobxonning hayotida roʻy beruvchi voqealarga toʻgʻri keluvchi holatlar, kitobxon hayotiga, xayoliga monand asarlar yozib asarga boʻlgan muhabbatini, yozuvchiga boʻlgan mehrini uygʻotib keladi va uning oʻquvchilarini koʻpayib borishiga sabab boʻladi. Misol qilib aytganda Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asarini olsak inson, yaʼni oʻquvchi kitobxon bu asardan boriga qanoat qilishni, shukur qilish, yaʼni sabr qilish kabi insoniylik qoidalarini oʻrganadi. Zamonaviy yoshlar nazarida hozirda yengil yelpi hayotga boʻlgan qarashlarini uchratishimiz mumkin, ularning saviyasini oshirishning asosiy qoidasi shundaki, nafaqat Jek London asalarini balki barcha dunyo yozuvchilarining asarlarini oʻqish, yoshlarni mukammal dunyo qarashini oshishiga yordam beradi. Hayotning achchiq zarbalariga dosh berib qiyinchiliklarni yenga olish uchun insonga teran fikr cheksiz dunyo qarash kerak boʻladi va bu xislatlarni oʻzida boʻlishni xohlagan inson badiiy kitoblarni koʻp oʻqishi koʻp kerakli maʼlimtlarni toʻplab hayotda ishlata olishi zarurdir. Zero badiiy jahon adabiyoti asarlari shu bilan

birgallikda Jek London asarlari hayotga teran nigoh bilan qarash kerakligini o`rgatadi desak mubolag`a bo`lmaydi albatta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jek London. Hayotga muhabbat. R.: "Stars". 1963.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti. 2006.
3. Jamilova B. O`zbek bolalar adabiyoti. T.: "Innovatsiya-ziyo". 2020.
4. M.O.Tokhirjonovna. [VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN](#). Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
5. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
6. O.Maxmudova. [СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ](#). Science and innovation 1 (B6), 171-176
7. O.T.Maxmudova. [TURKIY SO‘ZLARDA O‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI](#). Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54
8. O.T.Maxmudova. ONA TILINI O`RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. Innovative development in the global science 1(5), 81-87.
9. O.Maxmudova. [OZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOGIN VA UNING TIPLARI YUZASIDAN OLIB BORILGAN IZLANISHLAR](#). OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 105